

# **SHARQ MASH'ALI**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

1  
2024

*Ilmiy-uslubiy,  
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.  
Ta'sischi:  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
1992-yildan chiqa boshlagan  
Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi  
ro'yxatidan qayta o'tgan  
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:

**G. RIXSIYEVA** (prof., f.f.n.)

**Tahrir hay'ati:**

**D. SAYFULLAYEV** (prof., t.f.d.)  
(bosh muharrir o'rinnbosari)  
**X. ALIMOVA** (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)  
**A. MANNONOV** (prof., f.f.d.)  
**Q. SODIQOV** (prof., f.f.d.)  
**R. XODJAYEVA** (prof., f.f.d.)  
**SH. SHOMUSAROV** (prof., f.f.d.)  
**Q. OMONOV** (prof., f.f.d.)  
**U. MUHIBOVA** (prof., f.f.d.)  
**D. MUHIDDINOVA** (f.f.d.)  
**X. HAMIDOV** (f.f. bo'yicha PhD)  
**B. ABDUHALIMOV** (prof., t.f.d.)  
**A. XODJAYEV** (prof., t.f.d.)  
**M. IS'HOQOV** (prof., t.f.d.)  
**X. FAYZIYEV** (dos., t.f.n.)  
**D. XODJIMURATOVA** (t.f. bo'yicha PhD)  
**SH. YOVQOCHEV** (prof., s.f.d.)

**N. ABDULLAYEV** (dos., s.f.d.)  
**A. VAHOBOV** (prof., i.f.d.)  
**R. ABDULLAYEV** (prof., i.f.d.)  
**I. MAVLANOV** (prof., i.f.d.)  
**R. BAHODIROV** (prof., fal.f.d.)  
**E. IZZETOVA** (prof., fal.f.d.)  
**A. SHONAZAROVA** (AQSHning  
Kolumbiya univ. prof.)  
**G. GLIZON** (AQSHning New  
Mexico univ. prof.)  
**ONO MASAKI** (Yaponiyaning  
Tsukuba univ. prof.)

**LI DJI IN** (Koreya Respublikasining  
Xankuk chet tillar univ. prof.)  
**V. MESAMED** (Isroiuning  
Quddus univ. prof.)  
**A. GURER** (Turkiyaning  
Anqara univ. prof.)  
**A. VOROB'YEV** (Rossiya Fanlar  
akademiyasi, Sharqshunoslik  
instituti katta ilmiy xodimi)  
**G. AVDA** (Misr Arab Respublikasining  
Xelvon univ. prof.)  
**A. TOHIR** (Misr Arab Respublikasining  
"Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi  
direktori)  
**S. KURAYM** (f.f. bo'yicha PhD)  
**H. BAYDEMIR** (Turkiyaning  
Otaturk univ. prof.)

# SHARQ MASH'ALI

**ISSN 2181-2071**

## MUNDARIJA № 1, 2024-yil

### *Adabiyotshunoslik*

- |  |
|--|
| <b>Imomnazarov M.</b> Dahoning tug'ilishi.....3  |
| <b>Raxmonov A.</b> Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida xalq farovonligi g'oyasiining aks etishi .5  |
| <b>Xubbaliyeva M.</b> Xitoylik sayyoh Shyuan Zangning "Buyuk Tan sayohatnomasi" asari va "Sin tan shu" manbasining o'ziga xos jihatlari.....16 |
| <b>Saydganiyeva G.</b> Navoiyxonlik va Navoiy ijodiy an'analarining Qo'qon adabiy muhitni rivojidagi o'rni. ....23                             |
| <b>Abdullayeva D.</b> G'ada as-samman va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari portret va nutqiy xarakteristika .....32                             |
| <b>Ahmedov A.</b> To'tinoma asarining Buxorodagi nusxalari va ularning kodikologik qiyosiy tahlili ....39                                      |

### *Tilshunoslik va tarjimashunoslik*

- |   |
|---|
| <b>Kurbanova G.</b> Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda yo'qolgan ziyoni izlab..." asarida ifodalangan sharq ayollarini obrazining tarjimada qayta yaratilishi.....48 |
| <b>Kadirova X.</b> "O'tkan kunlar" hamda "Anna Karenina" asarlarining iks-femik birliklar tarjimasi muammolari.....58   |
| <b>Hakimova B.</b> Tilshunoslikda "Konsept" birligi va uning o'rganilishi .....68   |

### *Manbashunoslik va tarixshunoslik*

- |   |
|---|
| <b>Asloniy M.Reza</b> Kamoliddin Behzodning Temuriylar davri miniatyurasi va Eron rassomchiligi rivojidagi hissasi.....76 |
| <b>Polvonov J.</b> Mustamlaka davrida xiva xonligida xonga murojaatning cheklanishi .....82                               |
| <b>Xayrullayeva I.</b> Hindiston mamlakati xotin-qizlar ta'limi evolutsiyasi .....91                                      |
| <b>Abdullayev J.</b> Turkiy davlatlar tashkilotining paydo bo'lishi va istiqbollari .....100                              |
| <b>Abirov V.</b> O'zbek xalqi etnik tarixiga oid tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari va ilmiy natijalari .....109        |

 *S H A R Q M A S H ' A L I*

<p><b>Nashrga tayyorlovchilar:</b>  <b>J. ISMOILOV, A. ZIYODOV</b>  <b>L. HAMDAMZODA,</b>  <b>H. SULAYMONOVA</b></p> <p><b>Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.</b></p> <p>Jurnal original-maket asosida bosildi.      Sharq mash'ali, 2024 yil 1-son.      e-mail: nashriyot@tsuos.uz      web-site: www.tsuos.uz      Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p>	<p><b>Xalqaro munosabatlar va siyosat</b></p>	<p><b>Sadibaqosev H.</b> Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xitoyning o'rni ..... 121  <b>Джумаева Г.</b> Эволюция санкций и санкционной политики: краткий генезис .129  <b>Muydinov D.</b> Yevropaga migratsiya va qochoqlar oqimi: mintaqqa davlatlarining migratsiya siyosati ..... 136  <b>Soipov B.</b> Birlashgan arab amirliklarining ichki va tashqi siyosatida din omili ..... 145  <b>Mamadjonov A.</b> Turkiya tashqi siyosatining konseptual huquqiy asoslari va zamonaviy jihatlari ..... 155  <b>Mirg'iyosov M.</b> Xitoy Xalq Respublikasi transport sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tahlili ..... 163  <b>Nurimbetov R</b> Shanxay hamkorlik tashkilotining evolyutsiyasi: asosiy bosqichlari va institutsional rivojlanish xususiyatlari ..... 169  <b>Eshankulov A.</b> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи parlamentlararo hamkorligining o'ziga xosligi ..... 177  <b>Bo'ronov S., Nazarova F.</b> Hozirgi davrda Turkiya tashqi siyosati: mintaqaviy davlatdan global davlat sari ..... 187</p>
	<p><b>Ilmiy axborot</b></p>	<p><b>Korayem S.M.</b> Ali-Shir Nava'i and his literary heritage: (A study on his influence and contribution to world civilization) ..... 194  <b>Yuldasheva X.</b> Roja al Soniy ijodida ayollar mavzusi ..... 205  <b>Hasaniy M.</b> Maxdum Vosiliy fondi va undagi "Xamsa"ning qo'lyozma nusxasi ..... 209</p>
	<p><b>Tarjima</b></p>	<p><b>To'xliyev B.</b> Ajdoddardan kelgan o'gitlar ..... 211</p>



## ROJA AL -SONIY IJODIDA AYOLLAR MAVZUSI

**YULDASHEVA XILOLA**

Dotsent, f.f.n. v.b., TDSHU

**Annotatsiya:** Maqola saudiyalik yozuvchi ayol Roja Al-Soniyning ijodida ayollar mavzusiga bag'ishlanadi. Uning asarlarida ayollarning jamiyatdagi mavqeい, ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi muammolar, shuningdek, ayollarning o'z-o'zini anglashi va o'zligini topishi kabi mavzular ko'tarilgan asarlar tahlil qilngan. Roja Al-Soniy o'z asarlarida ayollarning turli qatlamlaridan va turli yosh guruhlaridan bo'lган personajlari orqali, ularning ichki dunyosini, orzu-umidlarini, muammo va qiyinchiliklarini qanday tasvirlagani, ayollarning o'z hayotlari ustida hokimlikni qo'lga olish jarayonlarini, jamiyatdagi gender stereotiplariga qarshi kurashishlarini va o'zlikni ifoda etish yo'llarini yoritadi. Shuningdek, maqolada Roja Al-Soniyning ijodi ayollarning o'ziga xosligini, kuch va zaifliklarini aks ettiruvchi, ularning jamiyatdagi o'rnnini qayta ko'rib chiqishga undovchi asarlari tahlil qilingan.

**Tayanch so'z va iboralar:** Saudiya adabiyotida identiklik, ayol yozuvchilar, Er-Riyod qizlari, tenglik.

**Аннотация:** Статья посвящена теме женщин в творчестве саудовской писательницы Ражи Аль Сани. В её работах анализируются такие темы, как положение женщин в обществе, проблемы их личной и социальной жизни, а также самосознание и обретение женщинами идентичности. В статье рассматривается, как Ража Аль Сани через своих персонажей из разных слоёв общества и разных возрастных групп изображает их внутренний мир, мечты, проблемы и трудности, проливает свет на процессы, с помощью которых женщины берут контроль над своей жизнью, как они борются с гендерными стереотипами в обществе и выражают свою идентичность. Также в статье анализируется творчество Ражи Аль Сани, которое отражает самобытность, силу и уязвимость женщин, побуждая их пересмотреть своё место в обществе.

**Ключевые слова и выражения:** Идентичность в саудовской литературе, женщины-писатели, девушки Эр-Рияда, равенство.

**Annotation:** The article is devoted to the theme of women in the works of Saudi writer Raja Al Sani. Her works explore topics such as the status of women in society, the issues surrounding their personal and social lives, as well as self-awareness and the acquisition of identity by women. The article examines how Raja Al Sani, through her characters from different social classes and age groups, portrays their inner world, dreams, struggles, and challenges, shedding light on the processes through which women take control over their lives, how they combat gender stereotypes in society, and how they express their identity. The article also analyzes Raja Al Sani's work, which reflects the individuality, strength, and vulnerability of women, encouraging them to reassess their place in society.

**Key words and phrases:** Identity in Saudi literature, women writers, Riyadh girls, equality.

Har bir madaniyatda ayolga erkakdan pastroqda turadigan va unga batamom qaram bo'lган shaxs sifatida qaralgan. Hamma jamiyatda ayolga ma'lum bir vazifalar — bola tug'ish va uy ishlarini bajarish vazifalari — topshirilgan. Erkak, o'z navbatida, oilani moddiy jihatdan ta'minlashi kerak bo'lган va yagona boquvchi hisoblangan. Ammo asta-sekin demokratik davlatlar paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan ayollarning mavqeい keskin o'zgarib, jamiyat hayotida muhimroq vazifalarni bajara boshlagan. Bundan tashqari, ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan feministik harakatlar va boshqa jamaot tashkilotlarining paydo bo'lishi davlatlarni o'z siyosatini qayta ko'rib chiqishga va ularni himoya qilish masalasi bilan shug'ullanishga majbur qildi. Afsuski, erkak va ayollarning mavqeini tenglashtirish jarayoni keng tus olmadi, balki bunga kamchilik davlatlarda erishildi. Xotin-qizlarga nisbatan nazoratsiz zo'ravonlik, ularning iqtisodiy va siyosiy huquqlarini cheklash va boshqa salbiy holatlar hali ham mavjud. Natijada hozirgi jamiyatda ayollarning mavqeい va roli muammosi global tus oldi. Sharqda, qolaversa boshqa joylarda ham ayollarga bo'lган bunday munosabat ko'p asrlik an'ana va urf-odatlar bilan

mustahkamlangan. U xalq og‘zaki ijodida, maqol va matallarda, turli obrazli iboralarda o‘z aksini topgan. Ayni vatqda, ayollar haqida ko‘p gapirilgani ularning jamiyatdagi roli ulkanligidan dalolat beradi.

Aytish joizki, arablar ayollarning jamiyatdagi roli va o‘rniga katta e’tibor bergenlar. Bu mavzu tarixiy tajriba, an’ana va urf-odatlar, diniy qarashlarda o‘z aksini topgan. Agar ular arablar va umuman musulmonlar hayoti va ongingin hamda mentalitetining asosida yotmaganida, shuningdek, axloqiy qarashlar majmui sifatida qabul qilinmaganida va jamiyat a’zolarida tarbiyalanmaganida, bunday g‘oyalar asrlar davomida o‘zgarmay kelishi dargumon edi. Zero, arab yozuvchilarining asarlaridagi oddiy ayollar obrazlarida milliy identiklik, an’ana va urf-odatlar aks etgan bo‘lib, ularning kundalik ongdagi o‘rni va rolini ifodalaydi. Odatda arab adabiyotida patriarxal model hukmronlik qilgan, yozuvchi ayollar esa juda kam uchragan. Ammo XX asrda feministik mavzularni ko‘targan ayol mualliflar paydo bo‘ldi. Masalan: misrlik Naval as-Saadaviy (“Nol nuqta yonidagi ayol”, “Qaynash nuqtasidagi ayol” romanlarida), G‘ada al-Sammon (“Men Shahrizodani o‘ldirdim” (1982), “Bayrut kechalari” (2003), “Men senga bir voqeani aytib beraman” (1992) romanlarida), jazoirlilik Assiya Jabbor (“Bezovta quchoq” va boshqa romanlarda) ayol go‘zalligi va o‘ziga xosligi haqida, ayollarga nisbatan qo‘llanayotgan zulm haqida yozganlar.

Saudiyalik yozuvchi ayol Roja Al-Saniy 2010-yilda chop etilgan “Ar-Riyod qizlari” romanida ayollarning ahvolini keskin tanqid qilingani uchun janjalga sabab bo‘ldi. Unda ayollarga oid dolzarb mavzu — “sharqona” feminizm masalasiga to‘xtalib o‘tilgan. Muallif ayollarning erkaklar bilan teng huquqli emasligi, jamiyatda mavqeい pastligi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olmasligi, erkaklarga moliyaviy jihatdan qaramligi kabi muammolarni ochiq-oshkora ko‘tardi. Adiba 50 ta elektron xatda to‘rt nafar dugonasining ko‘rgan-kechirganlarini oddiy va tushunarli tilda tasvirlaydi. Ushbu oddiy syujetlarda hozirgi musulmon jamiyatlarining hayoti va urf-odatlari aks ettirilgan, sharq identikligi va arab oilalarining turmush qonunlari fosh qilingan. Romanda Saudiya Arabistonli ayollarining ahvoli masalasi dadil ko‘tarilgani sababli katta shov-shuv va tanqidlarga sabab bo‘ldi. Syujet markaziga Saudiya jamiyatining qat’iy patriarxal asoslari doirasida shaxsiy baxti va erkini topishga harakat qilayotgan Ar-riyodlik to‘rt qizning kechmishlari qo‘yligan. Muallif qizlarning majburlab turmushga berilishi, ayollarning avtomobil haydashi taqiqlangani, paranji kiyishning majburiyligi, gender tengsizligi va zo‘ravonlik masalalarini keskin ko‘targan.

Roman qahramonlari Hamro al-Kasmaniy, Lamis Jiddaviy, Mishel al-Abdulrahmon hamda Sadim al-Xoraimli o‘qimishli qizlar bo‘lib, dunyoni zabt etishga intiladilar. Ar-Riyoddagi o‘rta maktabda birgalikda o‘qigan bu qizlar o‘qishni tugatgach hayotda turli yo‘llarni tanlashadi. Hamroni erga berishadi, Lamis tibbiyot kollejiga o‘qishga kiradi, Mishel jurnalistikani o‘rganadi, Sadim menejer bo‘lishni xohlaydi. Bu qizlardagi umumiy jihat ularning yoshi, dugona ekanliklari va baxtli bo‘lishni istashlaridir, qolgan barcha jihatlari bilan ular bir-birlaridan mutlaqo farq qilishadi. Qahramonlarning o‘ziga xos jihatlarini ta’kidlash uchun muallif ularga atayin jarangdor familiya va ismlar beradi. Hozirjavob Lamis “moslashuvchan”, nozik hijoziy shevaga ega bo‘lib, mamlakatning g‘arbiy darvozasi bo‘lgan va ko‘plab xorijliklar yashaydigan Jidda port shahridan kelgan. Uning ajdodlari Misrda yashagan. “Oy yuzli” Hamroning ajdodlari Nej viloyatidagi al-Qosim shaharchasidan kelishgan. “Tumanli” Sadimning ota-onasi Ar-Riyod yaqinidagi qo‘rg‘ondan. Mishel Abdulrahmonning oilasi esa har qanday islom davlatidan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, nasli noma’lum Mishel va “zodagon” Faysal al-Batranning nikohlari oldindan muvaffaqiyatsizlikka mahkum edi. Hamroning “qaysar” Rashid at-Tanbal bilan oilaviy hayoti esa eri xotinining rejashtirilmagan homiladorligidan xabar topgach ajrashish bilan yakunlandi. Sadimning “molparast” Valida ash-Shariy bilan unashtirilishi yaxshilik bilan tugashi mumkin emasdi. Shunday qilib, muallif Saudiya Arabistonli Podshohligida insonga kelib

chiqishiga qarab baho berilishini ta'kidlaydi. "Saudiya Arabistonining jamiyatni mevali kokteylga o'xshaydi — katta zarurat bo'lmasa, turli sinflar vakillari bir-birlari bilan aloqa qilishmaydi"<sup>1</sup>.

Roman konservativ doiralarining qattiq tanqidiga sabab bo'ldi, ular muallifni Saudiya Arabistoniga tuhmat qilishda va g'arb qadriyatlarini targ'ib qilishda aybladilar. Biroq, liberallashtirish tarafдорлари орасида kitob himoyachilar ham bor edi.

2005-yilda Raja Al-Saniy o'zining "Ar-Riyod qizlari" romanini o'z vatanida nashr ettirishga urinib ko'rdi, biroq uddalay olmadi. Saudiya senzurasi arab ayolining tanlov erkinligi haqidagi kitobning paydo bo'lishini salbiy qarshi oldi. Ana shunda muallif o'z romanining boblarini Yahoo portalida chiqara boshladi, bu ish muvaffaqiyatga olib keldi va kitob liberal Livanda, so'ngra Yevropa va Amerikada nashr etildi. 2009-yilda esa roman Dublin adabiy mukofoti (Dublin Literary Award)ga nomzod bo'ldi.

Roja Al-Saniy romandagi to'rt qahramon orqali bugungi saudiyalik ayollar duch kelayotgan ko'plab hayotiy muammolarni ko'tarishga muvaffaq bo'ldi va bu muammolarni har tomonlama yoritishga harakat qildi. Ta'kidlash lozimki, arab-musulmon milliy identikligiga xos ota-onasining tanlovi bo'yicha nikohlanish, ish yoki oila, hayot yo'lini, turmush o'rtog'ini, kiyim-kechagini, yurish-turishini tanlash kabi muammolarga faqat Yaqin Sharq aholisi emas, balki butun dunyodagi aksariyat muslima ayollar ham duch kelmoqda. Roman qahramonlari bo'lgan qizlar ko'p sinovlarni, umidsizliklarni va yo'qotishlarni boshidan kechirib, faqat sevgi asosiga qurilgan nikoh baxtli bo'lishi mumkin, ayol o'z kasbini, bo'lajak erini, nima kiyishni va o'zini qanday tutishni tanlash huquqiga ega, degan xulosaga kelishadi. Ya'ni Yevropa va Amerikaning feministik shiorlari Saudiya Arabistoniga ham yetib bordi.

Roja Al-Saniy bilan bir qatorda uning vatandoshi Xani Naqshabandiy ham o'zining "Arab ayolining iqrori" romanida saudiyalik ayollarning ojiz ahvolini tasvirlab, saudiyalik erkaklarning nojoiz xatti-harakatlarini fosh qilgan. "Dubayda o'tgan bir tun" nomli boshqa bir romanida esa yozuvchi o'z uyini jasorat bilan tark etgan, chet elda ishslashni tanlagan va baxtini o'sha yerda topgan yosh arab ayolining o'sish bosqichlarini tasvirlagan.

Roja Al-Saniy Xani Naqshabandiyga ergashib, roman sahifalarida o'zgarishlardan qo'rqaqidan o'ta rasmiyatchi arab jamiyatining manzarasini chizadi. Saudiya maqolida shunday deyilgan: "Arab qizining chodiri va qabridan boshqa narsasi yo'q"<sup>2</sup>. Sharq erkagining hokimiyyati esa cheksiz. U uylanish yoki ajralish, bir yoki bir nechta ayolni xotinlikka olish, qatl etish yoki kechirish huquqiga ega. Shunday qilib, ayolning shaxsiyati yo'qolib bormoqda. Mishel mardona tarzda shunday deydi: Saudiya jamiyatining tuzilishi "ikkiyuzlamachilik va ziddiyatlarga to'la; oxirgi chora — yo mavjud qoidalarga bo'ysunib, taqdirga tan berish, yoki chet mamlakatga ko'chib ketib, erkin yashash"<sup>3</sup>.

Biroq, Roja Al-Saniy romanining qahramonlari bu holatga chidashni xohlamaydilar. Ular sharq ayollarining dadil orzularini ifoda etib, quyidagilarga intiladilar:

- chodir, niqob va hijobni yechish, yuzlarini ochish;
- mashina haydash imkoniga ega bo'lish;
- mehnat qilish, ish haqi olish hamda o'zi va oilasini boqish huquqiga ega bo'lish;
- otasi yoki erining maxsus ruxsatisiz sayohat qilish imkoniga ega bo'lish.

Arab ayollarini bunday dadil g'oyalarni qizlar davralarida bildirish bilan cheklanmay, ularni hayotga joriy etadilar. Shunday qilib, muallif roman sahifalari orqali Saudiya jamiyatini isloh qilishdek qiyin vazifani zimmasiga oladi. Yozuvchi o'z romanida saudiyalik ayollarning otalari tomonidan e'tiborsiz qolishi, akalari tomonidan tahqirlanishi, erlari tomonidan haqoratlanishi kabi muammolarni ko'rsatib

<sup>1</sup> رجاء الصانع، بنات الرياض، دار الساقى في بيروت 2021م، 50 ص

<sup>2</sup> الغزالى محمد «حقيقة القومية العربية وأسطورة البعث العربى». القاهرة: دار نهضة مصر للطباعة والنشر والتوزيع 1998م، 31 ص.

<sup>3</sup> رجاء الصانع، بنات الرياض، دار الساقى في بيروت 2021م، 33 ص.

# SHARQ MASHLAMI

o‘tgan. Ajralish esa — zaif jins vakillari uchun moddiy va ma’naviy jarohat. Saudiya Arabistonida hamon jamoat joylarida (maktablar, muzeylar, masjidlarda) jinslarni ajratish amal qiladi. Misol uchun, qizlarga faqat ayol o‘qituvchilar dars berishi mumkin. Roman qahramoni Mishel eng erkin dugonasining so‘zleri orqali saudiyalik erkaklarga o‘z hukmini shunday e’lon qiladi: “Ular g‘ayratsiz va zaif. Ular eskirgan urf-odat va qadimiy an’analarning quli... Ular oilalar qo‘lidagi malay”<sup>1</sup>.

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, Saudiya jamiyatining ilg‘or qismi bir joyda qotib qolmagan. Roja Al-Saniy o‘z qahramonlari timsolida Saudiya Arabistonining ayollarini — taqdirga tan berish tamg‘asi bosingan “qora libosdagi ayollar”, degan qolipni buzadi. Kitobning muqaddimasida muallif kitobxonlarga maslahat beradi: birinchidan, o‘z tanlovingizni o‘zingiz qiling; ikkinchidan, qo‘rquvlaringizni yenging va o‘tmish sharpalarini bartaraf eting, uchinchidan, erkinlikdan qo‘rqmang va kelajak taqdiringizga dadil yuzlaning<sup>2</sup>.

O‘z yurtida qoralanishini bilsa-da, har holda hamyurtlarining diliiga kirib borishga uringan yosh adibaning jasorati insonni hayratga soladi. Roja Al-Saniyning kitobi an’anaga qarshi chiqdi. “Ar-Riyod qizlari” romanining muallifi kitob sahifalarida Saudiya jamiyati haqidagi afsonalarni tarqatib yubordi, Arab Sharqidan maxfiylik pardasini olib tashladi, arablar qattiq sir tutadigan oila binosining eshiklarini sal ochdi. Muallif to‘rt nafar yosh juvon taqdiri misolida Saudiya jamiyatini milliy identifikatsiyasini va bu jamiyat modernizatsiya qilinishi zarurligini ko‘rsatib berdi. Al-Saniyning aytishicha, Saudiya jamiyati dunyoga ochilishi, patriarxal qarashlar soyasidan chiqib, taraqqiyotga yuz tutishi kerak.

So‘nggi yillarda Saudiya Arabistoni Podshohligining hukumati mamlakatni modernizatsiya qilish uchun nafaqat infratuzilmani g‘arb namunasi bo‘yicha yangilash, balki fuqarolarni liberallashtirishni ham o‘z ichiga olgan ulkan loyihami amalga oshirmoqda. Qirollik taxti vorisi valiahd shahzoda Muhammad ibn Salmon al-Saud o‘z hamfikrlari jamoasi bilan birgalikda murosasizlikdan xoli bag‘rikeng islom diniga qaytishga chaqiruvchi “Vision 2030” (Nigoh 2030) nomli dasturini ishlab chiqdi. Shubhasiz, Raja Al-Saniy o‘zining shov-shuvli kitobi bilan jamoatchilik noroziligiga sabab bo‘lib, hukumatni ushbu loyihami amalga oshirishga undagan. G‘arb kitobxonlari nafaqat internetdan foydalanadigan va chet tillarida so‘zlashadigan, balki Yevropa va Amerika davlatlari bilan qo‘shma loyihalari yaratayotgan yangi avlod arab ayollarining hayoti haqida qiziq ma’lumotlar olmoqda. Zero, Roja Al-Saniyning romani tufayli Sharq va G‘arb madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot davom etmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мұхаммад Қутб.Ислам ва-ал-марья.Шабухат хавла-л-ислам. Қохира,1954. –103-104-б.
2. Шарқ ҳалқлари адабиёти тарихи 2. Араб адабиёти.Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2016 йил. 308 бет.
3. رجاء الصانع، بنات الرياض، دار الساقى فى بيروت 2021م، 3 ص.
4. الغزالى محمد «حقيقة القومية العربية وأسطورة البعث العربى». القاهرة: دار نهضة مصر للطباعة والنشر والتوزيع. 1998م، 31 ص.



<sup>1</sup> رجاء الصانع، بنات الرياض، دار الساقى فى بيروت 2021م، 12 ص.

<sup>2</sup> رجاء الصانع، بنات الرياض، دار الساقى فى بيروت 2021م، 3 ص.